

(2-sho'ba)

"TEATR MAKTABGACHA YOSH BOLALARNI RIVOJLANTIRISH VA TARBIYALASH VOSITASI SIFATIDA "

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20080470>

Rizayeva Munisxon Maxkamovna

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari
direktor va mutaxassislarini qayta
tayyorlash va ularning malakasini
oshirish instituti dotsenti
Telefon:+998977205462
Munisxon75@gmail.com*

Annotatsiya

Bolalar bilan teatr faoliyatini takomillashtirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sohada ijodiy hamkorlik va erkinlikni ta'minlash, spektakllarning badiiy saviyasini oshirishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, sohaga jahon teatr san'atining ilg'or tajribalarini joriy etish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun stol usti, barmoq, qo'lqopli va qo'g'irchoqli kichik sahna ko'rinishlarini sahnalashtirish hamda bolalar ijodiy jamoalari faoliyati yo'lga qo'yish vazifalari haqida kerakli ma'lumot va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar

Teatr, tomosha, o'yin, madaniy ko'nikmalar , axloqiy mavzu, dialogik metod, axloqiy tasavvur, didaktik maqsad,soya teatri,qo'lqop teatri,barmoq teatri,sahnalashtirish.

Аннотация

В целях совершенствования театральной деятельности с детьми и укрепления их материально-технической базы, обеспечения творческого сотрудничества и свободы в сфере, содействия повышению художественного уровня спектаклей, а также внедрения в сферу передового опыта мирового театрального искусства в дошкольных образовательных организациях организуется постановка детских настольных, пальчиковых, перчаточных и кукольных представлений, а также проведение творческих мероприятий для

детей. предоставляется необходимая информация и рекомендации о задачах по налаживанию деятельности коллективов.

Ключевые слова

театр, спектакль, игра, культурные навыки, моральная тема, диалогический метод, моральное воображение, дидактическая цель, театр теней, театр перчаток, театр пальцев, постановка.

Annotation

In order to improve theatrical activities with children and strengthen their material and technical base, ensure creative cooperation and freedom in the field, promote the improvement of the artistic level of performances, as well as introduce the best practices of world theatrical art in preschool educational organizations, staging children's tabletop, finger, glove and puppet performances, as well as holding creative events. for children. The necessary information and recommendations on the tasks of organizing the activities of the teams are provided.

Keywords

theater, performance, game, cultural skills, moral theme, dialogic method, moral imagination, didactic goal, shadow theater, glove theater, finger theater, staging.

Dunyo hamjamiyatining taraqqiyoti, taqdiri va kelajagi albatta bolalar tarbiyasi, ularning ma'naviy ongi, bilim va ko'nikmalari bilan bog'liqdir. Yoshlarni ezgu g'oyalar asosida tarbiyalashda, ularning madaniyati, ma'naviyati va dunyoqarashini kengaytirish hamda beg'ubor qalblarini munavvar tuyg'ulari bilan oshno qilish kelajakda yetuk, barkamol, vatanga muhabbat, ota-onaga xurmat, farzandlik burchini yurakdan ado etish, el manfaati yo'lida fidoyilik va insoniylik fazilatlari ruhida kamol toptirish, xullas bir so'z bilan aytganda vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi uchun san'atning ta'sirchan vositalaridan biri bu, teatrdir

Bugungi kunga qadar respublikamizda o'nta professional davlat qo'g'irchoq teatri faoliyat yuritib kelmoqda. Bu respublika aholisining katta qismini yoshlar kategoriyasi tashkil etadigan jamiyat uchun juda kam ko'rsatgich ekanligi oydek ravshan albatta. Biroq, masalaning boshqa tomoni mavjud: faoliyat olib borayotgan mazkur teatrlar o'z zimmasiga yuklatilgan muhim vazifalarni bajara olmoqdami, qo'g'irchoq teatrlarining bugungi kun bolalar madaniy hayotida tutgan o'rni qanday darajada, Toshkent shahrida faoliyat olib borayotgan O'zbek milliy qo'g'irchoq teatri poytaxt aholisi ma'naviy ehtiyojlarini qondira olayaptimi yoki

ushbu teatr qancha tomoshabinlarni o'z bag'riga sig'dira oladi-yu, bir yil mobaynida qancha bolalarga xizmat qilishi mumkin, kabi savollar ko'ndalang bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda teatr san'atini yanada rivojlantirish, teatrlar faoliyatini takomillashtirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sohada ijodiy hamkorlik va erkinlikni ta'minlash, spektakllarning badiiy saviyasini oshirishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, budjet mablag'lari va boshqa resurslardan samarali foydalanish, sohaga jahon teatr san'atining ilg'or tajribalari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun stol usti, barmoq, qo'lqopli va qo'g'irchoqli kichik sahna ko'rinishlarini sahnalashtirish hamda bolalar ijodiy jamoalari faoliyati yo'lga qo'yildi[1].

Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun stol usti, barmoq, qo'lqopli va qo'g'irchoqli kichik sahna ko'rinishlari sahnalashtirish hamda bolalar jamoalarini tuzish, "Ijodkor bolajon" qo'g'irchoq teatri to'garaklarini tashkil etish jarayonlari quyidagi mazmundagi ishlar asnosida:

-2025-yildan "Turon kichkintoylari" bolalar teatr jamoalarini tuzish va kichik sahna ko'rinishlarini tashkil etish yuzasidan o'quv-amaliy seminarlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Turon kichkintoylari" bolalar teatr jamoalarini to'garak sifatida tashkil etish va tarbiyalanuvchilarni tanlab olish choralarini ko'rish;

- "Turon kichkintoylari" bolalar teatr jamoasining yillik repertuar va tadbirlar rejasini "Ilk qadam" davlat o'quv dasturidan kelib chiqib bolalar yosh xususiyatlariga mosligini nazorat qilish;

- stol usti, barmoq, qo'lqopli va qo'g'irchoqli kichik sahna ko'rinishlarini tashkil etish uchun zarur sharoitlar yaratish vazifalari belgilansin.

Bizga ma'lumki qo'g'irchoq teatri o'zining qadimiy va boy tarixiga ega. Qo'g'irchoq teatrining o'ziga xos - sehrli olami, dunyosi mavjud. Demak sehrli olamga sayoxat qilar ekansiz albatta bosh sehrgarlarga duch kelasiz. Odatda bu sexrgarlar - aktyorlar hisoblanadi. Ular yordamida biz ertaklar olamiga sayohat qilamiz. Ertak qahramonlarining yaxshi-yomon tomonlarini, sarguzashtlarini, xullas, boshidan kechirganlarini aktyorlar ijrosi orqali qo'g'irchoq teatri sahnasida tomosha qilamiz. Qo'g'irchoq teatri aktyorining eng katta yordamchisi qo'g'irchoqlardir. U spektakl mavzu va g'oyasiga mos ravishda qo'g'irchoq rassomi va qo'g'irchoq ustasi tomonidan tayyorlanadi. Aktyorlar jonsiz bo'lgan oddiygina qo'g'irchoqlarning gapirishi, inson singari xursand yoki xafa bo'lishi,

uxlashi, og'iz va ko'zlarini harakatlantirib, moxirona boshqarib qahramonlarga ovoz berishadi. Qo'g'irchoq teatrining sehrli olamida qahramonlarning xatti-harakatlarini jon-u dili bilan tomosha qilayotgan, undan ruhan ozuqa olayotgan murg'ak qalblarni ko'rgan kishida zavq, shavq uyg'onadi.

Teatrning bayramona va quvnoq tomoshalari bolalarga ulkan, beqiyos quvonch baxsh etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar juda ta'sirchan, ular ayniqsa hissiy ta'sirga berilib ketishadi. Teatr asarlarning mazmuni kichkintoylarning majoziy-o'ziga xos fikrlashga yordam beradi. Teatr tomoshalarida bolalar nafaqat faol ishtirok etadilar, balki qo'g'irchoqlarni tayyorlash, dekaratsiyalarni yaratish va mazmunini muhokama qilish jarayonlarida ham bilimlarini shakllantiradilar[2].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar teatrida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

"Turon kichkintoylari" bolalar teatr jamoalari – davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining 4-7 yoshli tarbiyalanuvchilaridan iborat ijodiy jamoalar.

Stol usti teatri – stol ustida, kichik sahnada namoyish etiladigan teatr turi;

Barmoq teatri – barmoqlarga qo'g'irchoqcha o'rnatib sahnalashtiriladigan teatr turi;

Qo'lqopli teatr – qo'lqop ko'rinishidagi qo'g'irchoqlar orqali namoyish etiladigan teatr turi;

Qo'g'irchoq teatri – an'anaviy qo'g'irchoq sahnasi, bolalar, kattalar ijrosidagi teatr turi;

Soya teatri – yorug'lik va soyalar orqali namoyish etiladigan teatr turi[3]

Teatr tomoshalarida va havaskor ishtirokchilarda dunyoqarashini kengaytirish, kattalar bilan muloqatga kirish, o'z faoliyatlariga tanqidiy qarash kabi rivojlanish sohalarini shakllantiradi. Teatr tomoshalarida nafaqat bilish jarayonini, balki ijtimoiy-hissiy, ma'naviy qadriyatlarini ham shakllantiradi. [5]

Teatr tomoshalarida teatr va o'yin faoliyati negizida bolalar va kattalar hamkorligi takomillashtiriladi. Har bir pedagogva to'garak rahbari bolaga teatr o'yinini o'rgatishi, teatr o'yinlariga qiziqishni shakllantirish kerak. Jarayonni kichik qo'g'irchoq teatrlarini tomosha qilish, ertaklarni sahnalashtirish, bolalar adabiyoti va drammaturgiyasiga qiziqtirish orqali rivojlantiriladi.

Teatr faoliyatini tashkil etishning asosiy talablari maktabgacha yoshdagi bolalar kundalik faoliyatida o'yinlar, sahnalashtirish va badiiy adabiyotni yanada faollashtirishni ko'zda tutadi. Masalan, She'riy matnlarni o'qiyotganda, bola bilan muloqotda faol ishtirok etish, asardagi obrazlarni ovozlariga taqlid qilish, syujet yoki o'yin belgilarining intonatsiyalari ustida ishlash kerak[4]. Bolalar bilan "Uch tulki" ertagidagi biror tulkini obraziga kirish va uning nomidan gapirishga taklif

qiling. Guruhdagi bolalar ham tomoshabin ham ishtrokchi sifatida o'zlarini namoyon etsinlar. Jarayon so'ngida qarsaklar, emotsional qo'llash, rag'barlantirish bolalarda ijobiy ko'nikmalarni rivojlantiradi

Qo'g'irchoqlar nafaqat bolalar uchun balki kattalar uchun ham juda kuchli salbiy oqibatlariga olib keladi xatto qomati chiroyli yoshgina qo'g'irchoq ko'rinishiga ega bo'lgan o'yinchoqlar tarqalishi, ota-onalar uni farzandiga sotib olib berish bilan o'zlari ham unga xavas qiladi. Arzimasdek tuyulgan bu kabi holatlar farzandning murg'ak tasavvuriga singadi. Uning kiyinishi, yurish-turishiga, tarbiyasiga asta-sekin ta'sir ko'rsatib, hayotiy jarayonlarida aks eta boshlaydi. "Mard va jasur milliy qahramonlarimiz, bolalarni yaxshilikka, ezgulikka, teran fikrlashga undaydigan qanchadan-qancha ertak va afsonalarimiz bo'la turib, farzandlarimiz bunday qo'g'irchoqlarga berilib ketayotganliklariga e'tiborsiz qarab bo'lmaydi". Shuning uchun bola tarbiyasi juda jiddiy jarayon xisoblanadi. Sodda dil egalari bo'lmish jajji bolajonlarimiz ishonuvchan bo'ladi. "Barbi" singari qo'g'irchoqlarni bolani ovuntirish uchun olib bermaslik, balki ma'naviy va madaniy ozuqa beruvchi qo'g'irchoq teatri tomoshalariga kichkintoylarni biz ota-onalar tomoshabin sifatida olib kirsak, farzandlarimiz kelajakda albatta, jismoniy va ma'naviy kamolotiga, tafakkurining shakllanishiga ezgu amallar qilishga ko'nikma hosil bo'lishiga hizmat qiladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2022. – PF-60.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.04.2025 yildagi 210-son "2025-2030-yillarda Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PF-60. 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-son qarori// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2024.

4. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi- T.:2022

5. Zinoveva T.A. Pedagogicheskie usloviya razvitiya finansovogo gramotnosti u starshikh doshkolnikov – 2020 yil. - No 1 (28). – 3-6-стр